

Zumradxon XATAMOVA,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali dotsenti

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali dotsenti I.Rustamov taqrizi asosida

QO'QON XONLIGI MOLIYA TIZIMI TARIXIDAN: XAZINA SARFI MASALASI

Annotatsiya

Maqolada O'rta Osiyo davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutgan davlat Qo'qon xonligi moliya tizimi tarixiga oid ma'lumotlar yoritilgan. Xazinadagi mablag'ning sarf etilishi va moliyaviy xujjatlarda qanday aks etishi arxiv va qo'lozma manbalar asosida dalillangan.

Kalit so'zlar: Xonlik, moliya, mablag', xazina, hujjat, manba.

ИЗ ИСТОРИИ ФИНАНСОВОЙ СИСТЕМЫ КОКАНСКОГО ХАНА: ПРОБЛЕМА КАЗНЕРАВНЫХ РАСХОДОВ

Аннотация

В статье описана история финансовой системы Кокандского ханства – важного государства в истории среднеазиатской государственности. Использование средств казны и то, как это отражается в финансовых документах, подтверждается на основе архивных и рукописных источников.

Ключевые слова: Ханство, финансы, фонд, клад, документ, ресурс.

FROM THE HISTORY OF THE FINANCIAL SYSTEM OF KOKAN KHAN: THE PROBLEM OF UNEQUAL EXPENDITURES

Annotation

The article describes the history of the financial system of the Kokand Khanate, an important state in the history of Central Asian statehood. The use of treasury funds and how this is reflected in financial documents is confirmed based on archival and manuscript sources.

Key words: Khanate, finance, fund, treasure, document, resource.

Kirish. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda moliya tizimi tubdan isloh qilinib, bu sohada keng miqyosda islohotlar amalga oshirilmogda. Jumladan, iqtisodiyotga oid hujjatlarda moliya, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, tushumlarini davlat budjetiga va maqsadli jang'armalariga yo'naltirish tartiblari, soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish ishlari yanada takomillashmogda. «Har bir tuman va shaharda, respublika ahamiyatiga molik yirik korxonalar hissasini e'tiborga olmagan holda, soliqqa tortish bazasini kengaytirish bo'yicha amaliy-chora tadbirlarni ishlab chiqish»[1] ni iqtisodiyotning rivoji taqozo etmogda. Qo'qon xonligi moliya tizimi an'analarni manbashunoslik, tarixshunoslik, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar kabi yo'nalishlarda tadqiq etish O'zbekistonda mavjud moliya siyosatini tarixiy shakllanishini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. O'zbekiston hududida qadim zamonlardan beri shakllanib va rivojlanib kelgan milliy davlatchilikning uzviy davomchisi bo'lgan Qo'qon xonligida kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarning ayrim jihatlariga bag'ishlangan H.Bobobekov, O.Masaliev, G.Agzamova, D.Sangirova, K.Voxidova, V.Ishquvvatov, Z.Ilhomov, O'.Sultonov, Sh.Maxmudov, B.Tursunov, N.Topildiyev, Z. Madraximov, Sh.Qo'ldoshev, T.Xudoyqulov, B.Babadjanov, M.Axmedova, M.Alixojiyev, R.Arslonzoda [1] kabi tadqiqotchilarning asar va maqolalari chop etildi. Ularda xonlik tarixining turli masalalari, xususan, Qo'qon xonligidagi xalq harakatlari va ularning ijtimoiy - siyosiy asoslari, turli tarixiy shaxslar, jumladan, Aliquli Amirlashkarning mamlakat siyosiy hayotida tutgan o'rni, xonlikdagi ijtimoiy - iqtisodiy hayotning ba'zi masalalari, ma'muriy - boshqaruv tizimining ayrim muammolari, Qo'qon xonligi manbashunosligi masalalari ko'tarilgan va o'zining ilmiy talqinini topgan. Shu bilan birga, bu asarlar mualliflari xonlikning moliya masalalariga oydinlik kirituvchi ba'zi fikrlarni keltirib o'tadilar.

Natija va yechimlar. Qo'qon xonligi xazinasining sarf etilishi bo'yicha R.Nabiyev va Z.Xatamova tadqiqotlarida ma'lumotlar uchraydi [3]. R.Nabiyev asosan Qo'qon xoni Xudoyorxon davriga oid ma'lumotlarni keltirgan bo'lsa, Z.Xatamova tadqiqotida Olimxon, Umarxon, Mallaxon, Xudoyorxon kabi xonlarning boshqaruviga oid arxiv hujjatlarini uchratish mumkin.

Qo'qon xonligi devonxonasida xazinaga kirim bo'lgan mablag'larni qayd etish daftari mavjud bo'lganidek, uning sarf etilishi ham alohida daftarda qayd etilgan. O'ZMA da saqlanayotgan hujjatlarda keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha Qo'qon xonligi xazinasiga kelgan mablag'lar va ularni sarf harajatlari to'g'risida ma'lumotlarni bilish mumkin [4].

A.Kunning ma'lumotiga ko'ra, bir botmon g'alla 1 rub. 50 kop.dan 2 rub.gacha narxlangan. Agar o'rta miqdorini olganda 1 botmon g'alla 1 rub. 75 kop bo'lsa, unda xarbiy amaldorlarga berilgan bir yillik g'allaning narhi 532 775 rub.ga to'g'ri kelishi hamda ularga berilgan tanga rus puliga (5 tanga 1 rub.ga to'g'ri kelishini hisoblangan) 148 800 rub.ni tashkil etgan. Shunda g'alla va tangalarni birga xisoblaganda bir yilda xarbiylar uchun xazinadan 681 675 rub. ajratilgan. Bu xonning yillik daromadini 1/5 qismini tashkil etgan. Bundan tashqari, A.Kun xon daromadini bundan ikki-uch baravar ko'p bo'lganligini ta'kidlasa, Midendorf Xudoyorxonni yillik daromadi 7 mln rub ekanligini va bu xonni rus podshosi himoyasiga o'tgan, ya'ni daromadi pasaygan vaqtidagi ma'lumot ekanligini ta'kidlagan.

Velyamin-Zernov ma'lumotida ham xarbiy qism ta'minoti uchun moliyaviy xarajat amalga oshirilganligini bilish mumkin. Askarlikka kiruvchi kishilarning har biri ot va u uchun egar-jabdug' bilan ta'minlangan, bu uchun sarf harajat davlat xazinasidan amalga oshirilgan. Madalixon urush yillarida xarbiy mulozimlariga oshirilgan holda maosh to'lagan. Masalan, yuzboshiga 2 tilla, ellikboshiga 1,5 tilla, oddiy askarga esa 1 tilla pul tarqatilgan, bu maoshdan tashqari. Xarbiy boshliqlarga urush safariga chiqishdan ortiq sarupo, ya'ni, qimmatbaho to'nlar hadya etilgan. Urush vaqtida o'zini jasurlik bilan ko'rsatganlarni ham pul va qimmatbaho soqg'alar bilan taqdirlanganlar. Yil sayin askarlarni soni oshib borishi bilan moddiy ta'minotning moliyaviy sarfi ham oshib borganligi tabiiy.

Masalan, 1835-1836 yillarda yuzboshiga ajratilgan maxsulotlar pulga o'g'irilganda ja'mi 36 tilla 107 tangani tashkil qilgan [3.213b]. Bu jadvalda yuzboshi uchun davlat xazinasidan bir oylik maosh sifatida bir oyda 1 tilla 4 tanga mablag' ajratilgani va bu bir yilda 14 tilla 6 tanga bo'lganligi keltirib o'tilgan.

1835-yillar Madalixon hukmronligi davri (1822-1841)ga to'g'ri keladi. Bu davrda panjboshi 28 tilla xizmat haqi olgan, dahboshi 18 tilladan ortiqroq, oddiy askar esa 12 tilladan ortiqroq xizmat haqi olgan.

Askarlarni kiyim kechaklari uchun sarf etilgan mablag' to'g'risida ma'lumot beruvchi xujjatlar ham mavjud. Shuhujjatda askarlar yerlari va g'allalari haqida ham ma'lumotlar bor.

Qo'qon xonligida jangchilarni ushlab turish 150 000 chervones ga tushar edi. Bu mablag' A.Kunning ma'lumotidagi mablag'ga mos kelmasligi R.Nabiyev ta'kidlab o'tgan. Qo'qon xonligi xazinasidan mablag' sarflanishiga ko'ra xarbiy sohadan keyingi saroy ma'murligida ishlaydigan amaldorlar maoshi va ular uchun hadalarga katta mablag' sarflangan.

R.Nabiyevning jadvalida bir kishi uchun ajratilgan don miqdori keltirilgan. Lekin, hujjatda har biri uchun shu miqdordan berilganligi qayd etilgan. Shunda naqibga 500 botmon don bir yilda berilgan bo'lsa, jadvalda ikki nafar naqib ko'rsatilgan. Demak, ularga 1000 botmon don ajratilgan. Mirasad lavozimidagi 5 nafar shaxsga 300 botmondan ja'mi 1500 botmon don berilgan. Sadr lavozimidagi 10 nafar kishilarga 200 botmondan ja'mi 2000 botmon don berilgan. Sudur lavozimidagi amaldorlar 50 nafarni tashkil etgan, ularga ja'mi bo'lib 5000 botmon don berilgan. O'roq lavozimidagi 100 nafar kishilarga ja'mi 2000 botmon don berilgan. Ja'mi 11500 botmon don ajratilganligi jadvaldagi ma'lumotlarni umumiy hisoblaganda tashkil etmoqda. Pul ham har biriga alohidadan berilgan. Shunda, ikki nafar naqib 1000 tangadan har biriga olgan bo'lsa, xazinadan 2000ming tanga sarf etilgan bo'ladi. Besh nafar mirasadga 3500 tanga, o'n nafar sadrlarga 6000 ming tanga, ellik nafar sudurga 20000 tanga, yuz nafar o'roqlarga 200000 tanga xazinadan ajratilganligi ma'lum bo'ladi. Shunda xazinadan shu amaldorlar uchun ja'mi katta miqdordagi mablag' davlat xazinasidan ajratilmoqda.

Xulosa. Qo'qon xonligining moliya tizimi tamoyillari yurtimizda qadimdan shakllanib kelgan an'analarga va jahonda e'tirof etilgan moliya nazariyalariga mos holda rivojlangan bo'lsada, 1709-yildan 1876-yilgacha bo'lgan davrda xonlikdagi daromadlar miqdorini o'sish hamda pasayish A.P.Xoroshxinning ma'lumotiga ko'ra, Qo'qon xonligi xazinasiga kelib tushgan mablag'lar miqdori, ularni tasarruf etilishi bo'yicha ma's'ul shaxs mehtar deb atalgan[5]. Uning fikriga ko'ra, mehtar moliyaviy boshqaruvdagi birinchi raqamli shaxs bo'lish bilan birga bir qancha vakolatlariga ham ega bo'lgan [7]. Qo'qon xonligida mehtar 1865-yilgacha xarbiy qo'shinni turli hil mahsulotlar bilan ta'minlovchi shaxs vazifasini ham bajargan. 1866-yilda xazina ishlari bilan shug'illanuvchi mehtar xonga xisobot sifatida davlatning yillik daromadini 60ming tilla deb ko'rsatadi, lekin aslida olingan daromad 90ming tilla bo'ladi [3.208B].

Qo'qon xonligi xazinasining sarf etilishi masalasiga kelganda, xarbiy sohaga yil davomida eng ko'p sarf harajat qilinganligi ma'lum bo'ladi. Urush bo'lmagan vaqtlarda Qo'qon xonlarining xarbiy askarlari viloyat yoki shahar xokimlarining qaramog'ida bo'lgan. Ularning moliyaviy ta'minoti davlat soliqlarining ayrimlaridan ozod etilganliklari hisobiga bo'lgan.

Bulardan tashqari, Geynsning ma'lumotiga ko'ra, urush vaqtlarida axolidan xarbiy soliqlar yig'ilgan. Uning miqdori boy kishilardan 5 tilla, o'rtaxol kishilardan esa 2,5 tillani tashkil qilgan.

Saroy kutubxonasi nodir va qimmatli kitoblarga boy bo'lganligi manbaalardan ma'lum. Chet davlatlardan keltirilgan kitoblar uchun ham xazinadan katta mablag' ajratilib turilgan. Hujjatlarda Mirza Muhammad Yusufga taxta sandiq, oq kigiz, uch to'p gulli mato, 8 tanga berilgan, Qo'qonga kitob olib keltirishi uchun[4]. Bu yerda gap aynan xonning kutubxonasiga kitob keltirilganligi xaqida aytilmoqda. Chunki bu hujjatlar devonxonada mirzolar tomonidan qayd etilgan va arxivda saqlanib qolgan. Mulla Mirza Olim ibn domla Mirza Raxim Toshkandiy o'zining "Ansob-us salotin va tavorix-ul xavoqin" asarida rus podshosi xizmatchilari xondan qolgan kitoblardan 50 tasini topshirishi kerakligini aytgani va u 10gina kitobni topshirgani xaqida yozgan: "Rus tuhmat aylab manga behisob, Kasinda qolib ekan ellik kitob, A'lo joylay olmay o'n kitob, Xulosa ayladi, menga berdi javob" Mulla Mirza Olim Sheralixon, Mallaxon, Xudoyorxon kabi xonlar hukmronligi davrida va rus podsholigi bosib olgan vaqtlarning ilk yillarida yashagan va asarida shu davr voqealarini o'z ko'zi bilan ko'rgan shaxs sifatida bayon qilgan. R.Nabiyevning ta'kidlashicha, Rus xukumati undan xisob topshirish so'ralganiga qaraganda, u ayni o'sha davrda kitobdor vazifasida yoki hozirgi kutubxonachi lavozimida ishlayotgan bo'lishi ham mumkin[3.210b].

N.Pantusov Umarxonon davrida qazilgan xazina kanali suvidan yetishtirilgan xosildan xonning poytaxtdagi xarbiy qo'shini ta'minoti amalga oshirilgan deb yozganligi, Umarxon hukmronligi, ya'ni ___ yillarga oid ma'lumot ekanligiga diqqat qilish kerak. Xudoyorxon davrida qo'shin ta'minotiga moliyaviy jihatdan xazinadan katta mablag' ajratilganligi xaqida esa "Qo'qon hududidagi 210 qishloqning yarmidan ko'pidan olingan g'alla xirojining mablag'i xarbiy qismning moliyaviy ta'minoti uchun ajratilgan edi".

A.Kun Qo'qon xonligida amaldorlarning maxsulot va pul ko'rinishidagi moliyaviy ta'minotlari xaqida ma'lumot keltiradi. Unda xonlikdagi otaliq, qushbegi, parvonachi, dadho, biy, eshik og'asi, to'qsoba, miroxo'r, qorovulbegi, qo'rchi, divachi, mirzaboshi, chor-og'asi, botirlar (xarbiy mulozimlar)ning soni va ularga ajratilgan bir yillik don maxsulotlari botmon o'lchovida keltirilgan va pul mablag'lari bir yilga kumush tanga hisobida keltirilgan. A.Kunning ma'lumotlari Qo'qon tarixi moliya tizimini o'rganishda nihoyatda muhim va uning ishini davomi sifatida bu ma'lumotlarni R.Nabiyev o'z tadqiqotida jadval ko'rinishida keltirib o'tganligi ham e'tirofqa loyiq[3.197b].

A.Kunning ma'lumotlarida xarbiylarning tarxon, ya'ni soliqdan ozod etilgan mulklari keltirilmagan bo'lishi lozim. Chunki, tarxon mulki mavjud xarbiy mulozimlarga mas'ul amaldorlar tomonidan pattalar berilganligi ma'lum. Lekin, R.Nabiyevning fikriga ko'ra, A.Kunning ma'lumotlari tarxon mulklari hisobidan keltirilgan. Bundan tashqari, A.Kun o'z ma'lumotlarini tayangan manbani keltirmaganligi, Qo'qon xonligi moliya tizimida majburiylik, adolatparvarlik, aniqlik, qulaylik, tejash, nazorat-taftish hamda fuqarolarning murojatlari bilan ishlash tamoyillarga asoslanib ish olib borilganligi qo'lozma manbalar va arxiv hujjatlari asosida ochib berilgan. Qo'qon xonligi moliya tizimida faoliyat olib borgan amaldorlar ham davlatning iqtisodiy hayotiga yetarlicha o'z ta'sirini o'tkazgan. Mamlakatda siyosiy vaziyatning o'zgarib borishi hamda hukmdorning davlat iqtisodiy hayotni tartibga solish maqsadi ba'zan harbiy soha amaldorlarini ham soliq yig'ish ishlariga keng jalb etilishiga olib kelgan. Bu esa davlatning moliya tizimini o'zgarishlariga olib kelgan.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 11.
2. Bobobekov H. N. Qo'qon tarixi. – Toshkent: Fan, 1996. – 239 b.;

3. Masaliyeva O.M. XX asr ingliz-amerika tarixshunosligida Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklari tarixi. Tarix fan. nomz... diss. – Toshkent 1999. – 172 b.;
4. Agzamova G.A. So‘ngi o‘rta asrlar O‘rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va savdo. – Toshkent, 2000. – 52 b.; O‘sha muallif. O‘rta Osiyo xonliklaridagi savdo va unga xos an‘analar // “Buyuk ipak yo‘li va Farg‘ona vodiysi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2004. – B. 81-87.;
5. Sangirova D. «Tarixi Aziziy» - chor mustamlakachiligi davriga oid muhim tarixiy manba. Tarix fan. nomz... diss. – Toshkent, 2000. – 153 b.;
6. Vohidova K. Ishoqxon Junaydullox xo‘ja o‘g‘li Ibrat va uning tarixiy-ilmiy merosi. Tarix fan. nomz. diss.. – Toshkent, 2002. – 126 b.;
7. Ishkuvvatov V. XX asrning II yarmi tarixshunosligida Qo‘qon Rossiya diplomatik munosabatlari. Tarix fan. nomz... diss... – Toshkent, 2003. – 152 b.;
8. Ilxomov 3. Aliquli Amirlashkar va uning Qo‘qon xonligi siyosiy tarixida tutgan o‘rni. Tarix fan. nomz... diss. – Toshkent, 2004. – 160 b.;
9. Sultonov O‘. Muhammad Solihxojaning “Tarixi jadidayi Toshkand” asari muhim tarixiy manba sifatida (XIX asr). Tarix fan.nomz... diss. – Toshkent, 2007. – 157 b.;
10. O‘sha muallif. Muhammad Solihxoja va uning “Tarixi jadidayi Toshkand” asari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2009. – 269 b.;
11. Maxmudov Sh. Qo‘qon xonligida maxalliy boshqaruv tizimi // Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2004. – №1. – B. 67-68.;
12. O‘sha muallif. Qo‘qon xonligining ma‘muriy boshqaruviga oid ma‘lumotlar. (“Tarixi Aliquli Amirlashkar” asari asosida) // Imom al-Buxoriy saboqlari. – Toshkent, 2005. – №4. – B. 64-65.;
13. O‘sha muallif. Oliy Kengash (Vysshiy sovet) Kokandskogo xanstva // Qonun himoyasida. – Toshkent, 2005. –№2. – B. 36.;
14. O‘sha muallif. Qo‘qon xonligining ma‘muriy boshqaruv tizimi. Tarix fan.nomz... diss. – Toshkent, 2007. – 166 b.
15. Maxmudov Sh. Qo‘qon xonligida xorijiy davlatlarning elchilarini qabul qilish // “Farg‘ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda” mavzusidagi IV respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Farg‘ona, 2017. – B.136-138.;
16. Набиев Р. Из истории Кокандского ханства. Ташкент, 1973. – С. 259-274.; Хатамова З. Қўқон хонлигида солиқ тизими. Фарғона, 2021. – Б. 123. ЎзМА 1043-фонд.
17. Хорошхин А.П. Очерки Кокана, Сборник статей, касающихся до Туркестанского края.А.П.Хорошхина, СПб.,1876, стр.48.
18. Обозрение Коканского ханства в нынешнем его состоянии, ЗИРГО, кн. III, СПб, 1849, стр. 208.
19. Пантусов Н. О податях.... “Туркестанские ведомости”, 1876, № 16.
20. Вельямин-Зернов.Сведения о Коканском ханстве, ВИРГО, 1856, ч.18, стр.118.